
2023-YIL 1-APRELDAN XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHINING QIMMATLI QOG'OZLARNI CHIQARISH BO'YICHA QARORALARI MUHIM FAKT SIFATIDA OSHKOR QILINADI



2023-yil 1-apreldan xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashining qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha qaroralari muhim fakt sifatida oshkor qilinadi

Xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchisi (aktsiyadori) va kreditorlari huquqlarini himoya qilish maqsadida quyidagi tartib o'rnatiladi:

MChJ ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan, qiymati BHMning 10 ming baravaridan ko'p bo'lgan pulsiz hissalar baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi va baholangan qiymatdan yuqori bo'lishi mumkin emas;

yuridik shaxslar qo'shib yuborish, qo'shib olish va tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganda, korxonalarining huquq va majburiyatlari, topshirish hujjatida ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'i nazar, qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga o'tgan hisoblanadi;

xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashining aktsiya, korporativ obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha qarorlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq muhim fakt sifatida oshkor qilinadi.

Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisii

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-03-28 17:24:27